

XALQ ERTAKLARIDA TOPONIMIK BIRLIKLAR TAHLILI

Alimova E'tibor Karomat qizi,

Termiz davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq ertaklarida uchraydigan toponim va toponimik birliklar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: toponim, toponimik birliklar, gidronim.

Atrofimizdagi har bir jonli va jonsiz narsalar qandaydir nom bilan ataladi. Insonlarga tug'ilganidan ism qo'yilsa, turli xil geografik joylar: tog'lar, tepaliklar, soylar va boshqalarning nomlanishi o'ziga xos tarixga ega hisoblanadi. Har bir nomning kelib chiqishi, leksik-semantik, morfologik xususiyatlari lingvistik jihatdandan turlicha tahlil qilinadi. Shunga ko'ra nomshunoslik ya'ni onomastika deb ataluvchi soha shu kabi muammolarni o'rganadi. Nomshunoslikning o'zi bir qancha birliklarni qamrab oladi. Xususan toponimika shu birliklardan biri sanaladi. Rus olimi N.I.Nadejdin toponomika bu yerning tili, yer esa, shunday kitobki, insoniyat tarixi bu kitobda geografik nomlarda raqam qilinadi deya o'rinli ta'kidlaydi [3,5]. Toponimlar hamda toponimik birliklar tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Toponim so'zi yunoncha "topos", "onyma" so'zlaridan olingan bo'lib, "joy nomi" degan ma'noni anglatadi. Joy nomlari qadimiy va uzoq davrlarning mahsuli bo'lib, hudud tarixi, geografiyasi, tabiati va boshqa jihatlari haqida boy ma'lumot beruvchi lisoniy birliklar hisoblanadi. Joy nomlari deganda aholi yashaydigan joylar (respublika, viloyat, shahar, tuman, qishloq, ovul, mavze, daha, mahalla, گزار...), yer yuza shakllari (tog', cho'qqi, qoya, balandlik, tepa, jar, g'or, maydon, yaylov, adir...) nomlari kiradi[2,4]. Toponim so'zi ilmiy atama bo'lib, so'z sifatida o'ziga xos ma'no va vazifaga ega. Suv havzalari: dengiz, daryo, ariq, soy, kanal, ko'l, hovuz, jilg'a va shu kabi boshqa nomlarni o'zida birlashtiradigan onomastik birlik gidronimlar deyiladi. U ham toponimlar bilan birga o'rganiladi. Oronim, oykonim, gidronim, agronim, nekronim, dromonim kabi birliklar yuqoridagi nomlarni qamrab olgan toponimik birliklar hisoblanadi. Har bir joy nomining o'z tarixi bor, ular xalq hayotining turli tomonlarini o'zlarida aks ettiradilar, hamda shu xalq tilining tarixiy taraqqiyotini, milliy, etnik, madaniy tarixini yoritishda ahamiyatli hisoblandi. Toponimik birliklarni o'rganish murakkab vazifa bo'lib, uzoq

vaqt va kuchli salohiyat talab qiladi. Professor E.Begmatov toponimlarning tilning lugʻaviy tarkibidagi miqdori ancha salmoqli boylik ekanini qayd etarkan, hozirga qadar oʻzbek tilshunoslari Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm va Fargʻona viloyatlari hududidan 50 mingga yaqin toponimlarni toʻplashga muvaffaq boʻlganini yozadi[1,66]. Toponimlar xalqning oʻtmishi, yillar davomida boshidan kechirgan ijtimoiy-siyosiy hayotini, tilning tarixiy-lisoniy boyligini oʻzida saqlovchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. “Gidronim-suvlikdagi har qanday (tabiiy va sunʼiy) obyektlarning (okeonim, pelagonim, limnonim, potamonim, gelonim) atoqli oti, toponim turi” S.Qorayev gidronimlar doirasiga daryolar koʻllar, dengizlar, soylar, jilgʻalar, kanallar, qoʻltiqlar, boʻgʻozlar, sharsharalarning nomlarini kiritgan. N.Oxunov gidronimlarni “Suv obyektlarining yaʼni dengiz, koʻl, soy, ariq, buloq, quduq singarilarning atoqli otidir”, [5,5]– deb izohlaydi. N.Begaliyev esa gidronimlarni mukammalroq izohlaydi: “Gidronimlar oʻzida suv mavjudligi bilan yaqin boʻlgan yaʼni akvatoriyaga tegishli obyektlar okean, dengiz, qoʻltiq, boʻgʻoz, koʻl, botqoq, daryo, irmoq, ariq, sharshara, quduq va boshqalarning nomlari”.[6,3] Tilshunosligimizda toponimlarni oʻrganish ancha rivojlangan boʻlsa-da, oʻzbek xalq ertaklarida uchraydigan toponimlar hali tahlil qilinmagan. Jahon va oʻzbek tilshunosligida toponimlarning oʻrganilishi va tadqiqi bilan koʻplab olimlar shugʻullanganlar. Jumladan, V.V.Radlov, V L.Vyatkin, V.I.Shishkin, V.V.Bartold, S.P.Tolstov, M.E.Masson kabi tilshunoslik olimlarning nazariy va amaliy ishlarini misol sifatida keltirishimiz mumkin. Oʻzbek tilshunosligida esa A.Muhammadjonov, H.Hasanov, E.Begmatob, S.Qorayev, T.Nafasov, Z.Doʻsimov, N.Oxunov, N.Begaliyev, A.Turobov, S.Boʻriyev, A.Otajonov, Sh.Temirov, S.Ahmedov, N.Adizova Y.Neʼmatova, O.Begimov, J.Latipov va boshqalarning monografik ishlari salmoqli oʻrin egallaydi. Oʻzbek xalq ertaklarida turli xildagi tarixiy va madaniy hayotni oʻzida aks ettirgan mamlakat, shahar, qishloq, togʻ, dengiz, daryo, koʻl va boshqa shu kabi toponimlar uchraydi. Bu yoʻnalish tilshunosligimizda hali tadqiq qilinmagan soha boʻlgani uchun biz oʻzbek xalq ertaklaridagi toponimik birliklarni mavzuiy guruhlarga boʻlib tahlil qilishga harakat qildik. Xususan, Hirot, Kaʼnon

shahri, Dog‘iston, Susambil, Bo‘ston shahri, Parsi shahri, Ko‘hiqof, Quddus shahri, Misr shahri, Qirq tog‘, Olatog‘, Jiydakapa, Qo‘shbarmoq, Jizzax, O‘ratepa, Qo‘qon, Jurjon shahri, Garimjo‘sh, Yangiqo‘rg‘on, Oqtepa, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon va boshqa shu kabi toponimik birliklarni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Yuqoridagi toponimik birliklar kelib chiqishi va etimologiyasi turlicha bo‘lib ularni quyidagicha tahlil qilish mumkin.

Mamlakat nomini ifodalovchi toponimlar:

Dog‘iston – mamlakat nomi. Rossiya federatsiyasining Shimoliy Kavkaz hududidagi avtonom respublikadir.1). Men Dog‘iston shahar podshosining o‘g‘li shohanbar shahzoda bo‘laman. (“Besh qiz” 83-bet) Bu toponim ertakda shahar nomini ifodalash uchun qo‘llanilgan. 2). Eshak yoshligida onasidan: “Susambil degan mamlakat bor ekan. U joyda o‘tning quyug‘i, suvning tinig‘i mo‘l ekan. Unda birov bilan birovning ishi yo‘q ovqat mo‘l, qorning doim to‘yib yuradi, degan gapni eshitgan ekan. (“Susambil” 47-bet).

Susambil – mamlakat nomi bo‘lib, bu toponim ertakda hayot qiyinchiliklaridan qiynalgan nochor hayvonlar borib yashashni orzu qiladigan mamlakat, rohat farog‘at yurti sifatida ifodalangan.

Viloyat nomini ifodalovchi toponimlar: Xalq ertaklarida viloyat nomi shahar nomiga ko‘chgan holda uchraydigan ertaklarni ham ko‘rish mumkin. Bunga misol sifatida quyidagi ertakni keltirish mumkin.1). Namangan shahrida qassob edim do‘stlar, Oltmish yo‘lbars, oltmish bo‘ri, oltmish tulki, So‘yishga qo‘l qo‘ygan pudratchi edim. (“Botir echki” 35-bet). **Namangan** – respublikamizning shimoli-sharqiy qismida joylashgan viloyat bo‘lib, markazi ham shu nom bilan ataladi. Ba’zi ertaklarda esa mamlakat nomlari viloyat nomi sifatida kelgan. 2). Amudaryo kattasi bo‘lgani uchun Tojikistonning Panj viloyatidan Orol dengizigacha bo‘lgan masofada yumushlarni bajarar, hammaga shirindan shakar zilol suvuni ulashar ekan. (“Opa-singil daryolar” 22-bet) **Panj** – Tojikiston Respublikasi Xatlon viloyatining ma’muriy markazi bo‘lib, Saray Kamar, Buamanobod, Kirovobod deb nomlangan. 3). Qoravoy karvonboshi bizning gapimizga kirmading endi bilganingni qil, biz ketdik deb

tuyalarga mollarini ortib, Yaman viloyatiga jo‘nab ketibdi. (“ Uch avliyo” 12-bet). **Yaman** – Arabiston yarim orolining janubiy qismidagi davlat bo‘lib, islomiy davlat poytaxti Sanaa shahri. Mamlakat nomi xalq ertaklarida viloyat nomi sifatida qo‘llanilgan.

Shahar nomini ifodalovchi toponimlar: O‘zbek xalq ertaklarida joy nomlarining uchrashi turlichadir. Afsonaviy mamlakat nomlari va mistik g‘oya ifodalovchi joy nomlari shahar nomlari sifatida qo‘llanilgan. Masalan, 1). Men ham shahri Ziloldan bo‘laman. Shahri Zilolda mening oilam, onam va xotinim bor. (“Halol mehnat” 33-bet). 2). Biz kemaga tushib bir necha kun yurib Bo‘ston shahriga keldik. (“Besh qiz” 84-bet). **Bo‘ston** – leksikasi lug‘atda quyidagicha izohlangan: qishloq nomi. Bog‘-rog‘li joy. Daraxt ekib obod qilingan manzil, gulistonga aylangan joy. O‘zbek (qirg‘izlarning ham) bo‘ston urug‘i vakillarining qishlog‘i. Bo‘ston qishloq nomi o‘zbek xalq ertaklarida shahar ma’nosida ham qo‘llangan. 3). Men Parsi shahri podshosining qizi Kumushxon bo‘laman. O‘n besh yoshimda menga bir dev xushtor bo‘lib, o‘g‘irlab kelgan. (“Besh qiz” 88-bet). **Parsi** – urug‘ nomi. Qadimda Eron dan Hindistonga ko‘chib o‘tgan hozirda Gujarotda yashab kelayotgan zardushtiylik diniga e’tiqod qiluvchi qadimgi forslardir. 4). Mening shunchalik husnixatligimni Hirot shahrining podshosi eshitib shu o‘g‘lingni menga yubor debdi. **Hirot** – Afg‘onistonning shimoli g‘arbiy qismidagi shahar, Herrirud daryosidan sug‘oriladigan vohada oylashgan. Qadimiy shahar bo‘lib Temuriylar davrida poytaxt shaharlaridan bo‘lib, gullab yashnagan. 5). Endi ikki og‘iz so‘zni Jurjon shahridan eshiting. (“Malikayi Husnobod” 256-bet). **Jurjon**– Jurjoniya (forscha Go‘rgon) o‘rta asrlardagi viloyat va shahar. Kaspiy dengizining jan-sharqida, Eronning shimolida joylashgan. Temuriylar davridan so‘ng hozirgi Kumushtepa deb atalgan qishlog‘i nomi. 6). O‘ratepa begi xalqdan oq uylikka qora cherik-odam so‘rabdi. (To‘lg‘onoy” 21-bet) **O‘ratepa** – (O‘roltepa) Toshkent viloyatining Chinoz tumanida joylashgan arxeologik yodgorlik. O‘zbekistondagi madaniy meros obyekti.

Qishloq nomini ifodalovchi toponimlar: O‘zbek xalq ertaklarida aslida qishloq nomi ertakda esa shahar nomini ifodalab kelgan joy nomlari ham uchratish mumkin.

1). To‘lg‘onoy qistab yo‘l yurib Yangiqo‘rg‘onga bir tushib o‘tib, Oqtepaning bozori qizigan vaqtida kun og‘ayin deganda bozorga kirib boribdi. (“To‘lg‘onoy” 24-bet) **Yangiqo‘rg‘on** – Oqdaryo, Buvayda, Oltiariq qishloq. Yonidagi qo‘rg‘onga nisbatan keyingi davrda bunyod bo‘lgan qo‘rg‘on yonidagi qishloq. 2). **Oqtepa** – qishloq. Balandlik joyda qurilgan qadimiy qo‘rg‘on o‘rni; balandlik ko‘lami yonidagi boshqa tepaliklardan kattaroq va yuksakroq, bo‘lgan balandlik; ana shunday balandlik tevaragida qishloq. 3). Qadim zamonda hakim baliqchi degan chol bor ekan. Hakim baliqchi Changalzor degan bir qishloqdan uzoqroq joyda xotini va bir o‘g‘li bilan kun kechirar ekan. (“Hakim baliqchining o‘g‘li” 3-bet). **Changalzor** – “zor” qo‘shimchasi orqali hosil qilingan bo‘lib, changal qoplangan maydon, butazor degan ma‘noni anglatadi.

Tog‘ nomini ifodalovchi toponimlar. 1). Dev qayerda va qachon keladi deb so‘radim. Kumushxon: Ko‘hiqofda, qirq kunda bir kelib ketadi. (“Besh qiz” 88-bet). **Ko‘hiqof** – afsonaviy tog‘ nomi. Rivoyatlarga ko‘ra, Ko‘hi Qof dunyoning bir chetida joylashgan bo‘lib, unga “jasoratli pahlavonlargina yetib bora olgan. So‘z tarkibidagi *ko‘h* so‘zi qadimgi so‘g‘d va hozirgi fors-tojik tillarida mansubdir. 2). Lekin bobolarimizning hikoyalariga qaraganda shu shaharning chap tomonida Qirq tog‘ degan baland tog‘ bor. (“Quyosh yerining pahlavoni” 130-bet). 3). Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, Olatog‘ etagida bir chol bilan kampir yashar ekan. (“Urtuqmoq” 141-bet). **Olatog‘, Olatov** – ko‘p yillik qir va muzliklar hamda balandlik mintaqalari bo‘lgan tog‘lar. Baland tog‘larda doimiy qorlar oppoq, yalang‘och qoyalar esa qoramtir o‘tloqlar yam-yashil bo‘lib ko‘ringan. Bu nom shundan kelib chiqqan. 4). Erta bilan choyni ichib bo‘lgandan so‘ng otini tayyorlab, otiga mindirib, bek odam qo‘shib, Jizzaxning Garimjo‘sh tog‘idan oshirib, soy ichiga katta yo‘lga tushirib qo‘yibdi. **Garimjo‘sh** – “garim” so‘zi tojikcha “issiq, jazirama” degan ma‘noda ishlatiladi. Bunda ertakdagi Garimjo‘sh tog‘i issiq, jazirama tog‘ m‘anosida qo‘llanilgan bo‘lishi mumkin, bundan tashqari Garimjo‘sh - (Garnayn) daha nomi. Tojikiston Respublikasining Ayniy tumani, Anzobi jamoatiga qarashli daha nomi.

Daryo nomini ifodalovchi toponimlar: Toponimshunoslar gidronimlarni eng qadimiy nomlar deb baholaydilar. Xususan, S.Qorayev ta'kidlaganidek, Amudaryo Sirdaryoning qadimiy nomlari har qanday osoriatiqalar yoshi bilan bellasha oladi [4,58]. Tarixiy manbalarga ko'ra, qadimgi davlatlarning nomlariga odatda, daryo, qabila, xalq va markaziy shaharlar nomlari asos qilib olingan. Markaziy Osiyo xalqlari tarixida daryolar hayotning muhim manbai vazifasini bajargan. Bunda nomlarning vujudga kelishida xalq yashab turgan makon-zamon, flora va fauna ham katta ta'sir qilgan. Chunki insonlar o'zlari yashab turgan muhitdagi o'ziga tanish bo'lgan narsalarnigina kuzatadi, o'rganadi va nom qo'yadi. Shundan kelib chiqadiki, xalq ertaklaridagi gidronimik nomlar o'z ma'nosida qo'llanilishi yoki shaxs nomlariga ko'chishida xalqning urf-odatlarini, orzu-umidlarini aks ettirish maqsadi yotadi. Shuning uchun ham ertak qahramonlariga daryoday sof, tiniq, bag'ri keng, elga foydasi tegadigan insonlar bo'lsin degan niyatda daryo, dengiz va boshqa gidronimik nomlar insonlarga qo'yilgan. Masalan, 1). Bir bor ekan, bir yo'q ekan, uch opa singil daryolar bo'lgan ekan. Kattasining ismi **Amudaryo**, o'rtanchasini **Sirdaryo** va kenjasining ismi **Zarafshon** ekan ("Opa-singil daryolar" 22-bet).

Mahalla nomini ifodalovchi toponimlar: O'zbek xalq ertaklarini kuzatganimizda, mahalla, daha, gular nomini ifodalovchi joy nomlarini ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, 1). Burungi zamonda Sharq malakatlarining birida, Kalla bozor mahallasida go'zallikda tenggi yo'q, aqlli bir qiz yashar ekan. Bu ertakda qo'llanilgan **Kalla bozor** – so'zi so'yilgan hayvonlarning kallasi sotiladigan bozor degani bo'lib, odamlar turmush tarzidan kelib chiqib qo'yilgan. Kalla sotib olinadigan joyga nisbatan qo'llanilgan. Masalan, Kallaxo'r-qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumani. **Kalla** – (bu yerda so'yilgan hayvonning boshi), forscha xo'r, xo'rdan – "yemoq" hozirgi zamon fe'lining asosi, **Kallaxo'r** – "bunday taomni sevuvchilar yashaydigan qishloq ma'nosini anglatadi.

Cho'l nomini ifodalovchi toponimlar: Xalq ertaklarida bepoyon kengliklarni ifodalovchi cho'l nomlari ham uchraydi. 1). Amudaryoni barcha dov-daraxtlar, gilyohlar va ekin-tekinlar yaxshi ko'rar ekan. U Qoraqum va Qizilqum cho'llarini

ikkiga ajratib turarkan. (“Opa-singil daryolar”). Qoraqum – Osiyodagi eng katta qumli cho‘l. O‘rta Osiyoning janubida, Tukrmanistonning asosiy qismini egallagan cho‘l hisoblanadi. 2). Qizilqum – O‘zbekiston, Qozog‘iston va qisman Turkmaniston hududida joylashgan cho‘ldir.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq ertaklarida toponimik birliklarning o‘rni turlicha. Mamlakat, shahar, qishloq, tog‘, daryo va shu kabi toponimik birliklar xalq ma’naviyati, madaniyati, urf-odatlarini, an’analari qadriyatlarini asosida shakllangan hamda bu qadriyatlar joy nomlarida aks etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бегматов Э. Жой номлари-маънавиятимиз кузгуси. – Тошкент: Маънавият, 1998.
2. Нафасов Т, Нафасова В, Ўзбек тили топонимларининг ўқув изоҳли луғати. – Янги аср авлоди, 2007.
3. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Ўзбекистон, 2005.
4. Қораев С. Топонимика. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2006.
5. Охунов Н. Топоним ва уларнинг номланиш хусусиятлари.- Тошкент: Фан, 1989.
6. Бегалиев Н. Самарканд вилояти гидронимлари (лисоний таҳлил) Филол.фанлали номзоди. ...дис. автореф.- Самарканд, 1994.